**Registered in Germany Europa Revue Journal**
**ISSN: 1862-6564 Vol. 6 No. 11 (2026) Published November 05, 2026**

# COMBAT SPIRIT – A CRUCIAL FACTOR ENSURING THE COMBAT READINESS AND PSYCHOLOGICAL STABILITY OF MILITARY PERSONNEL

**Nasirov Axmadjon Muzaffarovich**
Department of National Pride and Military Patriotism Senior Instructor, National Pride Cycle
akhmadjonnasirov@gmail.com

**Abstract**

The article examines the essence and structure of fighting spirit (morale) and its role in ensuring the combat readiness and psychological resilience of military personnel. Foreign and national scientific sources, as well as official materials of the Ministry of Defence of the Republic of Uzbekistan, were analysed. Fighting spirit is interpreted as a multidimensional phenomenon comprising individual components (motivation, will, self-confidence) and collective components (cohesion, trust in the commander, comradeship). Empirical studies, including an observation of 1,939 soldiers during ten weeks of basic combat training and a study of 20,901 active-duty soldiers, indicate a link between unit cohesion, morale and stress resilience. The article concludes with practical directions for strengthening fighting spirit.

**Keywords**

fighting spirit, morale, combat readiness, psychological resilience, unit cohesion, stress resistance, military patriotism, motivation.

# JANGOVAR RUH – HARBIY XIZMATCHILARNING JANGOVAR SHAYLIGI VA PSIXOLOGIK BARQARORLIGINI TA’MINLOVCHI MUHIM OMIL

**Nasirov Axmadjon Muzaffarovich**
Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi
Milliy iftixor sikli katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jangovar ruhning mohiyati, tarkibiy qismlari hamda uning harbiy xizmatchilarning jangovar shayligi va psixologik barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda harbiy psixologiya sohasidagi xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining

rasmiy axborotlari o‘rganildi. Jangovar ruh individual (motivatsiya, iroda, o‘ziga ishonch) va jamoaviy (jipslik, komandirga ishonch, o‘rtoqlik) tarkibiy qismlardan iborat ko‘p o‘lchovli hodisa sifatida talqin etiladi. Empirik tadqiqotlar, jumladan, 10 haftalik boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik davomida 1 939 nafar harbiy xizmatchi ustida olib borilgan kuzatuv hamda 20 901 nafar xizmatchi ishtirokidagi tadqiqot harbiy jamoa jipsligi, ruhiy holat va stressga chidamlilik o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Maqolaning oxirida jangovar ruhni mustahkamlashning amaliy yo‘nalishlari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** jangovar ruh, jangovar shayliq, psixologik barqarorlik, harbiy jamoa jipsligi, stressga chidamlilik, harbiy vatanparvarlik, motivatsiya.

# БОЕВОЙ ДУХ - ВАЖНЕЙШИЙ ФАКТОР, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЙ БОЕВУЮ ГОТОВНОСТЬ И ПСИХОЛОГИЧЕСКУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

**Насиров Ахмаджон Музаффарович**

Кафедра национальной гордости и военного патриотизма

Старший преподаватель цикла «Национальная гордость»

**Аннотация.** В статье рассматриваются сущность и структура боевого духа, а также его роль в обеспечении боевой готовности и психологической устойчивости военнослужащих. Проанализированы зарубежные и отечественные научные источники, а также официальные материалы Министерства обороны Республики Узбекистан. Боевой дух трактуется как многомерное явление, включающее индивидуальные (мотивация, воля, уверенность в себе) и коллективные (сплочённость, доверие к командиру, боевое товарищество) компоненты. Эмпирические исследования, в том числе наблюдение за 1 939 военнослужащими в ходе 10-недельной базовой боевой подготовки и исследование с участием 20 901 военнослужащего, указывают на связь между сплочённостью воинского

коллектива, морально-психологическим состоянием и стрессоустойчивостью. В заключение определены практические направления укрепления боевого духа.

**Ключевые слова:** боевой дух, боевая готовность, психологическая устойчивость, сплочённость воинского коллектива, стрессоустойчивость, военно-патриотическое воспитание, мотивация.

**Kirish**

Zamonaviy qurolli to‘qnashuvlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, jang natijasini faqat qurol-yarog‘ va texnika miqdori belgilamaydi: shaxsiy tarkibning ruhiy holati, jangovar vazifani oxiriga yetkazishga bo‘lgan irodasi va jamoadagi o‘zaro ishonch ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining rasmiy axborotlarida ham zamonaviy armiyaning salohiyati texnika va qurol-yarog‘ bilan bir qatorda ruhan barqaror, yuksak ma’naviyatli hamda Vatan himoyasi vazifasini har qanday sharoitda sharaf bilan bajarishga tayyor harbiy xizmatchilar bilan belgilanishi alohida ta’kidlanadi [1].

Jahon harbiy psixologiyasida jangovar ruh hodisasi asosan inglizcha “morale” atamasi bilan (rus tilida – «боевой дух», «моральный дух») o‘rganiladi. Hind tadqiqotchilari qayd etishicha, jangovar motivatsiya va ruh harbiy tadqiqotlarning markaziy mavzularidan biriga aylangan [10]. Janubiy Afrika harbiy tadqiqotlar jurnalidagi sharhda esa askarlar ruhiga ta’sir etuvchi omillar nihoyatda ko‘pligi, ularning ichida rahbarlik, stressorlar, qurol sifati, tibbiy yordam, tayyorgarlik va intizom alohida o‘rin tutishi ko‘rsatiladi [9].

Mavzuning dolzarbligi yana shu bilan izohlanadiki, zamonaviy harbiy xizmatchi nafaqat jismoniy, balki axborot-psixologik ta’sirlar, ruhiy bosim va stress omillari sharoitida ham xizmat qiladi. Mudofaa vazirligi tomonidan o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda zamonaviy harbiy mojarolar tajribasi, axborot makonidagi turli ta’sirlar va ularning harbiy xizmatchilar ruhiy holatiga ta’siri maxsus tahlil qilinayotgani buning yaqqol dalilidir [1; 4].

Tadqiqotning maqsadi – jangovar ruhning mohiyati va tarkibiy qismlarini ochib berish hamda uning harbiy xizmatchilarning jangovar shayligi va psixologik

barqarorligini ta’minlashdagi o‘rnini ilmiy manbalar va aniq faktlar asosida asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: (1) jangovar ruh tushunchasini aniqlashtirish; (2) uning tarkibiy qismlarini tizimlashtirish; (3) jangovar ruh, jamoa jipsligi va ruhiy salomatlik o‘rtasidagi bog‘liqlikka oid empirik dalillarni umumlashtirish; (4) O‘zbekiston Qurolli Kuchlaridagi amaliyotni tahlil qilish; (5) jangovar ruhni mustahkamlash yo‘nalishlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot usullari: ilmiy adabiyotlar va rasmiy axborot manbalarini tahlil qilish, qiyosiy tahlil va umumlashtirish.

## Adabiyotlar tahlili va metodologiya

### Jangovar ruh tushunchasi va uning mohiyati

Jangovar ruh – harbiy xizmatchining (yoki bo‘linmaning) jangovar vazifani bajarishga ichki tayyorligi, xavf va qiyinchilik sharoitida ham bu vazifani davom ettirishga bo‘lgan qat’iyati va irodasini ifodalovchi ko‘p qirrali ruhiy holatdir. Mazkur ta’rif muallifning mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtirishiga asoslangan [3; 9; 11].

Xorijiy harbiy doktrinalarda ushbu hodisaga alohida e’tibor qaratiladi. Masalan, Italiya Armiyasi 2018-yilda “Shaxsiy tarkib ruhi to‘g‘risida doktrinal eslatma”ni e’lon qilgan bo‘lib, unda ruh jangovar quvvatning (fighting power) uch elementidan biri sifatida qaraladi. Ruh harbiy kuchning individual va jamoaviy darajada jangga tayyorlanish, uni boshdan kechirish va davom ettirishdagi psixologik moyilligi deb ta’riflanadi [11]. Shuningdek, Britt va Dickinson ruhni xizmatchining vazifa muvaffaqiyatiga erishishdagi motivatsiya va ishtiyoq darajasi sifatida, Manning esa guruh a’zolarining topshirilgan faoliyatda ishtiyoq va qat’iyat bilan ishtirok etishi sifatida ta’riflagani [11] da keltirilgan.

Ruhning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar nihoyatda ko‘p: Spear dastlab askarlar ruhiga ta’sir etuvchi ikki yuzga yaqin omilni aniqlagan, keyingi modellarda esa bu omillar rahbarlik, stressorlar, qurol sifati, tibbiy yordam, tayyorgarlik, chidamlilik va intizom kabi guruhlarga umumlashtirilgan [9].

Jangovar ruh, jangovar shayliq va psixologik barqarorlik tushunchalari bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, aynan bir narsa emas. Muallif talqiniga ko‘ra: jangovar ruh –

motivatsion-hissiy yo‘nalish (“nima uchun va qanday ishtiyoq bilan jang qilaman”); jangovar shayliq – bilim, ko‘nikma va texnik jihatdan tayyorlik holati; psixologik barqarorlik – stress va xavf ostida ish qobiliyatini saqlab qola olish xususiyati. Psixologik tayyorgarlikning o‘zi esa motivatsiya, emotsional barqarorlik, irodaviy sifatlar va kognitiv tayyorgarlik kabi tarkibiy qismlardan iborat ekani adabiyotda qayd etilgan [3]. Aynan jangovar ruh bu uch hodisani birlashtiruvchi “ichki yadro” vazifasini bajaradi.

**Jangovar ruhning tarkibiy qismlari**

Tahlil qilingan manbalar asosida jangovar ruhning asosiy tarkibiy qismlarini quyidagi jadval ko‘rinishida tizimlashtirish mumkin (1-jadval).

**1-jadval. Jangovar ruhning tarkibiy qismlari**

| **Tarkibiy qism** | **Mazmuni** | **Manba** |
|---|---|---|
| Motivatsiya va ongli munosabat | Vatan himoyasiga ongli munosabat, jangovar vazifani bajarishga ichki tayyorlik, barqaror ijobiy motivlar | [1; 3; 9] |
| Emotsional barqarorlik va iroda | Xavf va stress sharoitida o‘zini boshqarish, qiyinchilikka qaramay vazifani davom ettirish | [2; 3; 7] |
| Kognitiv tayyorgarlik | Bosim ostida vaziyatni to‘g‘ri baholash va qaror qabul qilish | [2; 3] |
| Jamoaviy jipslik | Bo‘linmadagi o‘zaro ishonch, o‘rtoqlik, umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilish | [8; 11; 12] |
| Rahbarlik va komandirga ishonch | Komandirning shaxsiy namunasi, adolatli boshqaruv, jamoada sog‘lom muhit | [9; 11] |
| Moddiy-texnik va tibbiy ta’minot | Qurol-yarog‘ sifati, tibbiy yordam, tayyorgarlik va intizom | [9] |
| Ma’naviy-axloqiy asos | Milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhiyati, ajdodlar jasorati an’analari | [1; 3] |

Italiyalik harbiy psixologlarning 2025-yilda e’lon qilingan tadqiqotida ruhning ikki o‘lchovi – individual va jamoaviy – alohida o‘lchanishi zarurligi asoslangan. Mualliflar

fikricha, agar jamoaviy ruh yuqori, individual ruh esa past bo‘lsa, shaxsiy omillarga yo‘naltirilgan ishlar, aksincha holatda esa guruhga qaratilgan psixologik tadbirlar samaraliroq bo‘ladi [11]. Bu xulosa komandirlar uchun amaliy ahamiyatga ega: ruh holatini “umuman” emas, ikki darajada baholash kerak.

**Harbiy jamoa jipsligi – jangovar ruhning ijtimoiy-psixologik asosi: empirik dalillar**

Jangovar ruhning eng muhim ijtimoiy-psixologik asosi – kichik bo‘linmadagi jipslikdir. Bu borada quyidagi aniq ilmiy dalillar keltirilishi mumkin.

Birinchi dalil. Motowidlo va Borman 1977-yilda harbiy bo‘linmalarda ruhni o‘lchash shkalasini ishlab chiqib, uni chet elda xizmat qilayotgan 47 ta AQSh vzvodiga qo‘llagan; natijada xizmatchilarning o‘z ruhini baholashi bilan komandirlar tomonidan berilgan bo‘linma samaradorligi bahosi o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik aniqlangan. Yuqoriroq ruh ichkilikka berilish kabi antijtimoiy moyilliklarning kamayishi va xizmatchilarning umumiy qoniqishi bilan bog‘liq bo‘lgan [14; 11 orqali].

Ikkinchi dalil. Gal va Manning 1987-yilda Isroil mudofaa kuchlari anketasini AQSh armiyasining ikki eskadroniga (biri o‘z bazasida, ikkinchisi chet elda joylashgan) qo‘llagan. Eskadronlar o‘rtasida farqlar aniqlanib, dushmanga yaqinlik yoki jang maydonida bo‘lish kabi omillar ruh darajasini sezilarli o‘zgartirishi ko‘rsatilgan [15; 11 orqali]. Maguen va Litz (2006) Kosovoda xizmat qilgan AQSh harbiy xizmatchilarida guruh jipsligi xizmat davomida yuqoriroq ruhga olib kelishini, oilaviy nizolar yoki iqtisodiy muammolar kabi stressorlar esa ruhni pasaytirishini aniqlagan [11 orqali].

Uchinchi dalil**.** Williams va hammualliflari (2016) 10 haftalik boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik davomida 1 939 nafar harbiy xizmatchida bo‘linma jipsligining rivojlanishini kuzatgan. Jipslik vaqt o‘tishi bilan ortgan (o‘sish koeffitsiyenti 0,22; $p < 0,001$) va bu o‘sish psixologik zo‘riqish va uyqu buzilishlarining kamayishi hamda chidamlilik va stressga reaksiyalarni boshqarishga ishonchning ortishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Jipslik tayyorgarlikni muvaffaqiyatli tugatish va jismoniy tayyorgarlik sinovidan o‘tish bilan ham bilvosita bog‘liq bo‘lib chiqqan [8].

To‘rtinchi dalil. AQSh armiyasining STARRS dasturida qatnashgan 20 901 nafar faol xizmatdagi harbiy xizmatchi ustida o‘tkazilgan tadqiqotda hazil tuyg‘usi, ruh va

bo‘linma jipsligi kabi chidamlilik omillari jangovar xizmat stressi ta’sirida posttravmatik stress buzilishi (PTSB) belgilarining rivojlanishiga qarshi “himoya qatlami” bo‘lishi mumkinligi haqida dalillar olingan [12]. Mualliflar bu dalillarni “ba’zi dalillar” darajasida baholaganini hisobga olish zarur.

Ushbu natijalarni umumlashtirib, quyidagi xulosani aytish mumkin: jangovar ruh faqat shaxsning ichki xususiyati emas; u ko‘p jihatdan bo‘linmadagi ijtimoiy muhit, o‘zaro ishonch va birgalikdagi faoliyat jarayonida shakllanadi hamda ruhiy salomatlikni himoya qiluvchi omil vazifasini bajaradi.

**Jangovar ruh, stressga chidamlilik va psixologik barqarorlik**

Harbiy faoliyat stress omillari bilan chambarchas bog‘liq. G.Selye ishlab chiqqan stress konsepsiyasiga ko‘ra, organizm tashqi tahdidga javoban fiziologik va psixologik darajada reaksiya bildiradi [7]. Harbiy xizmatchi bu reaksiya mexanizmini bilishi va uni nazorat qilishni o‘zlashtirishi zarurligi O‘zbekistonlik tadqiqotchi tomonidan ham ta’kidlangan [3].

Rossiyalik tadqiqotchi E.E.Lisovskayaning sharhida psixologik barqarorlik harbiy xizmatchilarning xizmat sharoitlariga va stress omillariga muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlovchi shaxsiy xususiyat va psixofiziologik sifat sifatida ta’riflanadi [6]. Shu sharhda keltirilishicha, A.Yu.Farafonov harbiy xizmatchilar stressga chidamliligini jismoniy tayyorgarlik vositalari bilan shakllantirishning to‘rtta pedagogik shartini ajratgan: (1) xizmatchilarni aniqlangan stressga chidamlilik darajasiga ko‘ra kichik guruhlarga bo‘lish; (2) ko‘rsatkichi past bo‘lganlar uchun individual topshiriqlar ishlab chiqish; (3) o‘zini boshqarish usullariga o‘rgatuvchi treninglar o‘tkazish; (4) jismoniy tayyorgarlik jarayonida stressli xizmat va jangovar vaziyatlarni modellashtirish [6].

RAND korporatsiyasining 2014-yildagi hisobotida (Robson va Manacapilli) jang maydonidagi aviatsiya xodimlarida (battlefield airmen) stressga chidamlilikni jangovar faoliyatni taqlid qiluvchi maxsus mashqlar orqali mashq qildirish tajribasi tahlil qilingan. Mashqlar tarkibida aerob yuklamalar, sovuq harorat ta’siri (chiniqish) va chidamlilik mashqlari bo‘lib, bu majmua o‘ziga ishonch, muvaffaqiyatsizlikka bardoshlilik va tashqi stressorlarga chidamlilikni shakllantirgani qayd etilgan [13; 6 orqali].

Ruh va ruhiy toliqish o‘rtasidagi bog‘liqlik Foglia va hammualliflari tadqiqotida ham ko‘rsatilgan. Italiya armiyasining 7-“Bersaglieri” polki harbiy xizmatchilari ishtirokida Bolgariyadagi “Enhanced Vigilance Activity” operatsiyasi (2023-yil fevral–avgust) davomida o‘tkazilgan so‘rovda umumiy ruh ko‘rsatkichi ishga jalb etilganlikning “kuch-g‘ayrat” o‘lchovi bilan ijobiy (r = 0,53), kinizm bilan esa teskari (r = –0,44) bog‘langan; individual ruh ruhiy toliqish bilan teskari bog‘lanishni (r = –0,49) ko‘rsatgan [11]. Boshqacha aytganda, ruh pasayganda xizmatchi stressga ko‘proq zaif bo‘lib, hissiy jihatdan toliqish xavfi ortadi.

Muhim bir cheklovni ham ta’kidlash lozim: yuqorida keltirilgan empirik tadqiqotlarning aksariyati xorijiy armiyalarda va nisbatan cheklangan tanlanmalarda o‘tkazilgan [11; 12]. Shu sababli ularni O‘zbekiston sharoitiga mexanik ko‘chirish emas, balki milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda mahalliy empirik tadqiqotlar bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq.

## Natija va muhokamalar

### O‘zbekiston Qurolli Kuchlarida jangovar ruhni mustahkamlash amaliyoti

O‘zbekiston Mudofaa vazirligining rasmiy axborotlari ruhiy barqarorlik masalasi jangovar tayyorgarlik tizimida alohida yo‘nalish sifatida yuritilayotganini ko‘rsatadi.

Birinchidan, 2026-yil avgust oyida e’lon qilingan axborotga ko‘ra, jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarida zamonaviy harbiy mojarolar tajribasi, axborot-psixologik ta’sirlar va jangovar vaziyatlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ruhiy bosimlar tahlil qilinib, ularga nisbatan barqarorlikni shakllantirishga e’tibor qaratilmoqda [1].

Ikkinchidan, 2026-yil 24-sentabrda e’lon qilingan axborotda tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitserlari hamda harbiy psixologlar ishtirokida o‘tkazilgan mashg‘ulot yoritilgan. Unda harbiy xizmatchilarni jangovar vazifani bajarishga axloqiy-ruhiy tayyorlash, ularning ruhiy holatini baholash va zarur hollarda psixologik ko‘mak ko‘rsatish bo‘yicha amaliy mashqlar o‘tkazilgan; shartli jangovar vaziyatlar asosida stress va ruhiy zo‘riqishda o‘zini boshqarish, vaziyatni to‘g‘ri baholash hamda vazifani izchil bajarish ko‘nikmalari mashq qilingan; xizmatchilarga o‘ziga va jamoadoshlariga psixologik yordam ko‘rsatish bo‘yicha tavsiyalar berilgan [2]. Shu mashg‘ulot doirasida

komandirlar, psixologlar va tibbiyot xizmati mutaxassislarining o‘zaro hamkorligi ham amalda sinovdan o‘tkazilgani qayd etilgan [2].

Uchinchidan, alohida mashg‘ulotlarda xizmatchilarning murakkab va keskin vaziyatlarda o‘zini tutishi, ruhiy barqarorligini saqlashi, jamoa bilan hamjihat harakat qilishi, shuningdek, axborot-psixologik ta’sirlarga qarshi barqarorligini oshirish, provokatsion ma’lumotlarga tanqidiy yondashish, ishonchli manbalardan foydalanish va axborot xavfsizligiga rioya qilish masalalari qamrab olingan [4].

To‘rtinchidan, ruhiy tayyorgarlik harbiy qism darajasidagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali ham mustahkamlanmoqda. Oqoltin tumanida joylashgan harbiy qismda o‘tkazilgan psixologik seminar va amaliy trening interaktiv mashg‘ulotlar, psixologik testlar va amaliy topshiriqlarga asoslangan bo‘lib, stressli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda jamoada o‘zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlashga qaratilgan [5].

Ushbu faktlar jangovar ruhni mustahkamlashga yondashuv bir tomonlama emasligini – u psixologik tayyorgarlik, axborot xavfsizligi, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va komandir–psixolog–tibbiyot xizmati hamkorligini o‘z ichiga olgan kompleks yondashuv ekanini ko‘rsatadi. Bu yondashuv ilmiy adabiyotda ilgari surilgan fikr – psixologik tayyorgarlik nazariya, amaliyot va ma’naviyat uyg‘unligida tashkil etilishi lozimligi – bilan hamohangdir [3].

**Jangovar ruhni mustahkamlashning asosiy yo‘nalishlari**

Tahlil natijalariga tayanib, jangovar ruhni mustahkamlashning quyidagi yo‘nalishlarini ajratish mumkin (bu yo‘nalishlar muallif tomonidan umumlashtirilgan bo‘lib, ilmiy manbalarga tayanadi).

Ruhiy holatni muntazam va ikki darajada baholash. Ruhni individual va jamoaviy o‘lchovlarda baholash komandirga bo‘linmadagi vaziyatni aniq ko‘rish va tadbirlarni maqsadli yo‘naltirish imkonini beradi [11]; shuningdek, ruhiy-irodaviy holatni muntazam baholab borish va individual yondashuv asosida psixologik yordam ko‘rsatish samaradorlikni oshirishi ta’kidlangan [3].

Jangovar vaziyatlarni modellashtirishga asoslangan mashqlar. Stress va ruhiy zo‘riqish sharoitida o‘zini boshqarishni shartli jangovar vaziyatlarda mashq qilish [2],

jismoniy tayyorgarlikda stressli vaziyatlarni modellashtirish [6; 13] stressga chidamlilikni oshiradi.

Kichik bo‘linma jipsligini mustahkamlash. Jipslikning ortishi ruhiy zo‘riqishning kamayishi va stressga ishonchning oshishi bilan bog‘liqligi [8], shuningdek, PTSB belgilariga nisbatan himoya omili bo‘lishi mumkinligi [12] jamoaviy mashg‘ulotlar, o‘zaro yordam va adolatli boshqaruvga alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Jismoniy tayyorgarlik va ruhiy chidamlilikning uyg‘unligi. Jismoniy tayyorgarlik stressga chidamlilikni shakllantirishda vosita sifatida qaraladi; chidamlilik, nafas va diqqatni nazorat qilish mashqlari bunda alohida o‘rin tutadi [6].

Axborot-psixologik barqarorlikni oshirish. Provokatsion ma’lumotlarga tanqidiy yondashish, ishonchli manbalardan foydalanish va axborot xavfsizligiga rioya qilish ko‘nikmalari ruhiy holatni tashqi ta’sirlardan himoyalaydi [4].

Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik tarbiyasi**.** Harbiy psixologik tayyorgarlikda milliy mentalitet, axloqiy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhiyati va ajdodlarimizning mardlik va sadoqat an’analarini hisobga olish zarurligi adabiyotda ta’kidlangan [3]. Muallifning fikricha, tarixiy xotira, milliy iftixor va Vatan himoyasi burchining ma’naviy mohiyatini anglash – jangovar motivatsiyaning eng barqaror manbalaridan biri bo‘lib, “nima uchun xizmat qilaman” degan savolga ichki, shaxsiy javob beradi. Aynan shu sababli bu yo‘nalish milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik fanlarining jangovar tayyorgarlik tizimidagi o‘rnini belgilaydi.

**Xulosa**

Olib borilgan tahlil quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi.

Birinchidan, jangovar ruh – harbiy xizmatchining jangovar vazifani bajarishga ichki tayyorligi, motivatsiyasi va irodasini ifodalovchi ko‘p o‘lchovli hodisa bo‘lib, individual va jamoaviy tarkibiy qismlardan iborat. Xorijiy doktrinalarda u jangovar quvvatning alohida elementi sifatida e’tirof etiladi .

Ikkinchidan, ilmiy tadqiqotlar jangovar ruh, bo‘linma jipsligi va ruhiy salomatlik o‘rtasida bog‘liqlik borligini ko‘rsatadi: 1 939 nafar xizmatchi ustidagi kuzatuvda jipslik ortishi psixologik zo‘riqish va uyqu buzilishlarining kamayishi bilan bog‘langan; 20 901 nafar xizmatchi ishtirokidagi tadqiqotda ruh va jipslik jangovar stressning PTSB

belgilariga ta’sirini yumshatishi mumkinligi haqida dalillar olingan . Shu bilan birga, bu natijalar asosan xorijiy armiyalarda olinganini va ehtiyotkorlik bilan talqin qilinishi lozimligini unutmaslik kerak.

Uchinchidan, jangovar ruh psixologik barqarorlikni ta’minlovchi omil sifatida stressga chidamlilik, o‘zini boshqarish va qaror qabul qilish ko‘nikmalari bilan chambarchas bog‘liq; bu ko‘nikmalar jangovar vaziyatlarni modellashtiruvchi mashqlar va jismoniy tayyorgarlik vositalari orqali rivojlantiriladi.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston Qurolli Kuchlarida ruhiy barqarorlikni mustahkamlash bo‘yicha amaliy ishlar psixologik tayyorgarlik, axborot-psixologik barqarorlik, ruhiy holatni baholash va komandir–psixolog–tibbiyot xizmati hamkorligini qamrab oluvchi kompleks tarzda olib borilmoqda.

Beshinchidan, jangovar ruhni mustahkamlashda ma’naviy-axloqiy omil – milliy iftixor, tarixiy xotira va harbiy vatanparvarlik tarbiyasi – alohida ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu yo‘nalishda O‘zbekiston harbiy xizmatchilari o‘rtasida jangovar ruhni o‘lchash (individual va jamoaviy darajada) hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning samaradorligini baholashga qaratilgan mahalliy empirik tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. Jangovar tayyorgarlikda ruhiy barqarorlik [Elektron resurs]. 2026-yil 11-avgust. URL: https://gov.uz/oz/mudofaa/news/view/204933

2. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. Ruhiy barqarorlik – jangovar tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi [Elektron resurs]. 2026-yil 24-sentabr. – URL: https://gov.uz/oz/mudofaa/news/view/223730

3. Nizamatdinov J.K. Harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar // Central Asian Journal of Academic Research. 2025. 3-jild, 7-son. B. 70–74. DOI: 10.71337/inlibrary.uz.cajar.128226

4. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. Mashg‘ulotlar amaliyot bilan uyg‘unlashtirildi URL: https://gov.uz/oz/mudofaa/news/view/205868

5. Ruhiy trening tashkil etildi [Elektron resurs] // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA). URL: https://uza.uz/ar/posts/ruhiy-trening-tashkil-etildi_890294

6. Лисовская Е.Э. Взаимосвязь физической подготовленности и психологической устойчивости военнослужащих // Вестник Челябинского государственного университета. Образование и здравоохранение. 2021. № 2–3 (14–15). С. 68–71. DOI: 10.24411/2409-4102-2021-102-308

7. Селье Г. Стресс без дистресса. М.: Прогресс, 1979. 123 с.

8. Williams J., Brown J., Bray R., Anderson Goodell E.M., Rae Olmsted K., Adler A.B. Unit cohesion, resilience, and mental health of soldiers in basic combat training // Military Psychology. 2016. Vol. 28, No. 4. P. 241–250. DOI: 10.1037/mil0000120

9. Van ’t Wout M.C. Managing morale on the battlefield: a psychological perspective // Scientia Militaria, South African Journal of Military Studies. – 2015. Vol. 43, No. 1. P. 127–148. DOI: 10.5787/42-1-1112

10. Maheshwari N., Sharma R., Kumar V.V. Reflections on sustaining morale and combat motivation in soldiers // Defence Life Science Journal. 2021. Vol. 6, No. 1. P. 49–55. DOI: 10.14429/dlsj.6.16680

11. Foglia E., Pellicano G.R., Poccia S., Saracino G., Livi S. Military personnel morale: proposing a psychological tool on operations // Giornale di Medicina Militare. 2025. Vol. 175, No. 3. P. 229–237. DOI: 10.69141/MM.2025.026

12. Ward R.N., Carlson K.J., Erickson A.J., Yalch M.M., Brown L.M. Associations of humor, morale, and unit cohesion on posttraumatic stress disorder symptoms // Military Psychology. 2024. Vol. 36, No. 3. P. 301–310. DOI: 10.1080/08995605.2021.1996103

13. Robson S., Manacapilli T. Enhancing performance under stress: stress inoculation training for battlefield airmen. Santa Monica, CA: RAND Corporation, 2014. (RR-750)

14. Motowidlo S.J., Borman W.C. Behaviorally anchored scales for measuring morale in military units // Journal of Applied Psychology. 1977. Vol. 62, No. 2. P. 177.

15. Gal R., Manning F.J. Morale and its components: a cross-national comparison // Journal of Applied Social Psychology. 1987. Vol. 17, No. 4. P. 369–391.